

**ALOHIDA TA'LIMGGA EXTIYOJI BO'LGAN BOLALARDA O'QISH MOTIVATSIYASINI OSHIRISHDA  
O'YIN TERAPIYASINI QO'LLASH**

Xamrayeva Maftuna Shuhrat qizi

Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Psixologiya (faoliyat turlari bo`yicha) yo`nalishi 1-kurs magistranti

**Annotatsiya:**

maqolada alohida ta'limga muxtoj bo'lgan bolalarda o'yin terapiyasini olib boorish , o'yin texnologiyasini fanga kirib borishi, olimlarning ilmiy nazariy qarashlari bayon etilgan .

**Kalit so'zlar :** o'yin , terapiya , ta'lim , tarbiya , aql , qaror , extiyoj , usul , ko'rinish .

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari joriy etildi .Bu qarorning qabul qilinishi yurtimizda alohida ta'limga extiyoji bor bolalar uchun keng imkoniyat yaratilganligidan dalolat .Alohida ta'limga extiyoji bo'lgan bolalarda o'qish motivatsiyalarini shakllantirishda o'yin terapiyani qo'llash samarali usul hisoblanadi ,chunki ularda o'yinlar orqali qiziqish paydo bo'la boshlaydi . O'yin inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin kattalar hayotida muayyan o'rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni «bolalikning hamrohi» deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda etakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ulanadigan ko'pchilik jiddiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o'ylaydi. O'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.O'yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san`atshunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o'z o'yinlarida ovchilik, urush, dexqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o'sha davrdagi ba`zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o'yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilardi. YA.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g'oyalari hozirgi zamon bolalar o'yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. «Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega– deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, - insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan».YAn Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblardi. Uning fikricha o'yin – bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyidi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. YA.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan edi. P.F.Lestgaft bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan tasurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Shunday qilib o'yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o'yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg'or olim va pedagoglar o'zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar.

Tarbiyachilar bolalar o'yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishi lozim.

1. o'yin bilan mehnat o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish

2. o'yinda bolalarning bo'lajak mehnat axliga xos bo'lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

Shu tariqa o'yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy faoliyatdir; o'yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi; o'yin ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyliigi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga hizmat qiladi. O'yin faoliyati asosida boladagi o'quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o'ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi. Ilk yoshli bolalar o'yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o'yin bo'lib, u narsa-buyum-o'yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo'l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir. Keyingi bosqich aks ettirish o'yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o'yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta'lim-tarbiyaviy ishlarini ma'lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o'z o'yinlarida qo'llay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o'yini mazmuni jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi. Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o'yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo'lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish keraqligini aks ettiradi. Navbatdagi bosqich rolli o'yin bo'lib, unda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan kattalar mehnati va qishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar. Bolalar o'yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o'yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi. Imkoniyati cheklangan bolalarda o'yin terapiyasini qo'llash orqali quydagilarga erishish mumkin :

-o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;

-o'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotini tashqil etish shaklidir;

-o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;

-o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;

-o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o'yinning mazmuni, tashqil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o'yinining rivojlanish darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatdi. Bolalar o'yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir. Ijodiy o'yinlarni bolalar o'zlari o'ylab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo'lmaydi. O'yin qoidasini bolalar o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi. Qoidali o'yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o'yinlarga quyidagilar kiradi: didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, musiqaviy o'yinlar, ermak o'yinlar. Bolalarga ta'lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o'yinni tanlay bilishi, unga to'g'ri rahbarlik qilish "MTM ta'lim va tarbiya dasturi"da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi. O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida etakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, uni ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin. Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yiniga qiziqishini, tashqilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashqil etilgan bolalar jamoasi zarur bo'ladi. O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, MTMning ta'lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomonlama

tarbiyalashda katta o'rin tutadi. O'yinda bola organizmiga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o'yin munosib o'rin egallaydi. O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o'yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurini, hayolini, diqqatini, xotirani faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilishga o'rganadi, o'ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o'ylab topadi, o'z bilimlaridan foydalanish va uni so'z bilan ifodalashga o'rganadi.

O'yinda aks ettirayotgan narsani bilib olishga qiziqish uyg'onadi. Ko'pincha o'yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilim doirasini kengaytirish uchun hizmat qiladi. Ijodiy o'yinni tor didaktik maqsadlarga bo'ysindirib bo'lmaydi, bu o'yin yordamida juda katta tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi.

Qoidali o'yin bolaning sensor rivojlanishini, taffakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqatini va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidali o'yin ma'lum didaktik maqsadga ega bo'lib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyaiga ega bo'lib bolaning umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'limning o'yin shaklida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o'yin bolaning aqliy faolligini oshiradi, o'yinda bola mashg'ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Bu ta'lim butunlay o'yin shaklida bo'lishi kerak degan gap emas. Ta'lim turli usullar va metodlarni qo'llashni talab etadi. O'yin ta'limning shakllaridan biri bo'lib, boshqa bir metod bilan qo'shib olib borilgandagina yaxshi natija beradi, bular kuzatish, suhbat, so'zlab berish va hakozolar.

#### **Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:**

1. Raxmanova V.S. "Korreksion pedagogika va logopediya".-"Moliya-iqtisod", -T., 2007. 4-10-betlar.
2. Raxmanova V.S. "Defektologiya asoslari". -"VORIS-NASHRIYoT". T., 2012. 3-8-betlar.
3. Raxmanova V.S. "Maxsus pedagogika".-T., "G'ofur G'ulom", 2004.
4. Jalolova, Mohinur. "SENSORY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AGE." Archive of Conferences. Vol. 25. No. 1. 2021.
5. Jalolova, M. (2021, May). SENSORY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AGE. In Archive of Conferences (Vol. 25, No. 1, pp. 153-157).
6. Джалолова, Мохинур, Эъзоза Юлдашевна Рахманова, and Холида Набиевна Косимова. "ВОСПИТАНИЕ СЕНСОРНОГО ВОСПРИЯТИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА." Scientific progress 1.6 (2021).
7. Джалолова, М., Рахманова, Э. Ю., & Косимова, Х. Н. (2021). ВОСПИТАНИЕ СЕНСОРНОГО ВОСПРИЯТИЯ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. Scientific progress, 1(6).
8. Djalolova, M., and Sh Mamajonova. "THE PROBLEM OF LEARNING CREATIVE THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN." Theoretical & Applied Science 4 (2020): 176-178.
9. Djalolova, M., & Mamajonova, S. (2020). THE PROBLEM OF LEARNING CREATIVE THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN. Theoretical & Applied Science, (4), 176-178.